“O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan ilm-fan va kimyo sohasida ayollarni qo‘llab-quvvatlashga bag'ishlangan tadbir o‘tkazildi

// 10.02.2025
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-tomonidan-ilm-fan-va-kimyo-sohasida-ayolla

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Taraqqiyot maqsadlaridagi fan, texnika va innovatsiyalar” to‘g‘risida rezolyusiyada 11 fevral – Xalqaro ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar kuni deb e’lon qilingan.

Shu munosabat bilan yurtimizda 10-15-fevral kunlari “Ilmli ayol - jamiyat ko‘zgusi” mavzusida ilmiy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy hamda xotin-qizlarning ilmiy salohiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar haftaligiga start berildi.

Haftalik doirasida joriy yilning 10-fevral kuni D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti Toshkent shahridagi filialida xotin-qizlarni ilm-fan va kimyo sohasida qo‘llab-quvvatlashga bag‘ishlangan tadbir bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda olimlar, professor-o‘qituvchilar va talabalar, faol xotin-qizlar, shuningdek, “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari mutaxassislari, boshqaruv raisi maslahatchilari ishtirok etishdi.

Uchrashuvda xotin-qizlarning mamlakatimiz ilm-fanida tutgan o‘rni, barqaror rivojlanish va ilmiy tadqiqotlarda ularning rolini oshirish kabi masalalar muhokama qilindi.

Panel sessiyalarida olima ayollar o‘z tajribalari va yutuqlari bilan o‘rtoqlashdilar. “Yashil kimyo” va ishlab chiqarish jarayonlaridagi innovatsiyalar bilan bog‘liq mavzular, xotin-qizlarning ta’lim va ilmiy faoliyatdagi ishtirokini faollashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Bundan tashqari, ishtirokchilar interaktiv sessiyalarda ham faol ishtirok etishdi. Unda yosh olimalar va talabalar o‘z tadqiqotlari, loyihalarini taqdim etdilar. Ular orasida biodizelning qiyosiy tahlili, katalizatorlarni qayta ishlash bo‘yicha tadqiqotlar, shuningdek, glyutensiz mahsulotlar bozoridagi tendensiyalar tahlili kabi mavzular o‘rin olgan.

Tadbir norasmiy muloqot, tajriba almashish va yangi professional aloqalarni o‘rnatish uchun ajoyib imkoniyat bo‘ldi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati